



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 456-460 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA UNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI



**Olmosova Munisa Sherxon qizi**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

3-bosqich talabasi

[munisaolmosova@gmail.com](mailto:munisaolmosova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va uning huquqiy-institutsional asoslari ko'rib chiqildi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaning shakllari va uning asosiy belgilari tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** *milliy strategiya, ijtimoiy xizmatlar, iqtisodiy taraqqiyot, . Ma'muriy-buyruqbozlik, ekstensiv omillar, ijtimoiy to'qnashuvlar, investisiya faoliyati.*

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено формирование системы социальной защиты населения и ее правовые и институциональные основы в условиях рыночной экономики. Также проанализированы формы социальной защиты и ее основные особенности в условиях рыночной экономики.

**Ключевые слова:** *национальная стратегия, социальные услуги, экономическое развитие. Административное командование, экстенсивные факторы, социальные конфликты, инвестиционная деятельность.*

**Abstract:** In this article, the formation of the system of social protection of the population and its legal and institutional foundations in the conditions of the market economy were considered. Also, the forms of social protection and its main features were analyzed in the conditions of the market economy.

**Key words:** *national strategy, social services, economic development. Administrative command, extensive factors, social conflicts, investment activities.*

#### KIRISH

Ma'lumki, aholini ijtimoiy himoya qilish yurtimizda eng dolzarb mavzu sifatida ko'rib chiqilmoqda va chora tadbirlar ko'rilmogda. 2021-2030 yillarda aholining ijtimoiy himoya qilinishining milliy strategiya konsepsiyasi loyihasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va muhokama uchun e'lon qilingan. Loyiha yetakchi xalqaro tashkilotlar: BMT, YuNISEF, Jahon banki, OTB va YeI bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Strategiyani amalga oshirish uchun Kengash tashkil etiladi, quyidagilar uning asosiy vazifalari jumlasiga kiradi:

- davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimini baholash va monitoring qilish uchun instrumentlarni aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish, statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash va ochiqligini ta'minlash,
- ijtimoiy nafaqalarning miqdorlarini belgilashdagi mezonlarni qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlarga asoslangan va milliy mentalitet, aholi turmush tarzidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy himoya minimal darajasini aniqlash;
- kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalarning strukturasi sifatini oshirish, daromadi past aholi qatlamini aniqlash mezonlarini ko'rib chiqib ochiq va adolatli tizimni yaratish;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish mexanizmlarini integratsiya qilish uchun «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimini funksiyalarini yanada kengaytirish;
- kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish dasturlarini, shuningdek aholi bandligiga ko'maklashish va mehnat bozorini aktivlash bo'yicha dasturlarni o'zaro muvofiqlashtirish;
- bolalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordamni yetkazish tartibi va tizimini qayta ko'rib chiqish va mukammallashtirish[1].

Bozor va uning tuzilishi, mazmuni, belgilari, uning afzallik va kamchilik tomonlarini o'rgangandan keyin endi bozor iqtisodiyotiga o'tish kerakmi yo'qmi, degan savol turadi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik mamlakatlar boshqa iqtisodiy tizimlarga qaraganda bozor iqtisodiyoti tizimi afzal deb, unga o'tmoqdalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun maxsus o'tish davri zarur bo'lib, bu davrning mazmuni va asosiy belgilarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiy mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri deganda ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr tushuniladi. 1980-1990 yillarga kelib, dunyoda ro'y bergan muhim o'zgarishlar iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi nazariyalarni qaytadan ko'rib chiqish va ularga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni zarur qilib qo'ydi. Chunki bu vaqtga kelib G'arbiy mamlakatlarda uzoq vaqtdan beri (A.Smit davridan boshlab) hukm surib kelgan erkin iqtisodiy tartibga solish, ya'ni iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartibga solish g'oyasi ham, iqtisodiyotni markazlashtirilgan tarzda tartibga solish va boshqarish g'oyasi ham inqirozga uchradi[2].

Bunday sharoitda iqtisodiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini qidirib topish zarur bo'lib qoldi. Bu vaqtga kelib ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning tajribalari umumlashtirilib, iqtisodiyotning yangi taraqqiyot yo'li - ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti deb tan olindi va aksariyat davlatlar shu yo'lni tanladilar. Lekin bunday bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari (modellari) xilma-xil bo'lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga revolyusion yo'l bilan, ya'ni jadal usulda yoki evolyusion yo'l bilan bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy tnosabatlarni birdaniga va batamom sindirish talab etiladi. Bu «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb ataladi. Eski iqtisodiy

munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Tslohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolyusion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib ke-ladi, ancha izchil va muqarrardir.

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarigina emas, balki uning andozalari ham xilma-xildir. Eng awalo, ular shunday bozor iqtisodiyoti vujudga keltirilayotgan va amal qilib turgan mamlakatlarning milliy xususiyatlari va an'analari bilan farq qiladi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotining ma'lum andozalari ularni amalga oshiruvchi muayyan mamlakatga mansubligiga qarab ajratiladi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Argentina, Polsha andozalari va hokazo. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi iqtisodiy o'sish ekstensiv omillaridan foydalanish imkoniyatlarining tugab borishi bilan notdvar iqtisodiyotning amal qilish layoqatining pasayishi orqali ifodalanadi[3].

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsa-da, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Hammaga ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ikki yo'l, ya'ni revolyusion va evolyusion yo'llar mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. Boshqacha aytganda ular «karaxt qilib davolash» degan usulni qo'lladilar. Bu yq'Ini amalga oshirish uchun Rossiyada «300 kun», «500 kun» degan o'tish dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlarni tezkorlik bilan amalga oshira boshladilar. Bunda ular bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ancha uzoq muddatli o'tish davri bo'lishni unutdilar. Natijada bu mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, ko'plab korxonalar yopilib, ishsizlar soni ko'paydi, pulning qadri keskin pasayib ketdi, iqtisodiyot esa hamon karaxtlikdan chiqqani yo'q, odamlarning ahvoli og'irlashdi. Shuning uchun O'zbekiston bu yo'ldan bormay boshqa yo'l tanladi. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyusion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi. Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi. Ikkinchi bosqichda investisiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi[4].

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Ijtimoiy himoya — bu insonning hayoti va faol mavjudligi ehtiyojlarini qondirish, hayot sharoitining minimal darajasini kafolatlashga qaratilgan tadbirlar va muassasalar tizimidir. Bugungi kunda ijtimoiy himoya insoniylik, manzillilik, komplekslilik, shaxsning

huquq va erkinliklarini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilishdan maqsad: oilalar va individlarning moddiy ehtiyojlarini ta'minlash, nafaqaxo'rlar va nogironlarni himoya qilish, oilalarni birdamligini saqlash, bolalarga sog'lom va xavfsiz voyaga yetishlari uchun zamin yaratishdan iborat. Ijtimoiy himoya tizimining tarixiy evolyutsiyasiga nazar tashlasak u dastlab diniy jamoat muassasalari, masjid, madrasa yoki cherkovlar orqali amalga oshirilgan. Uning ilk ko'rinishi milodiy 347-yilda Rim imperiyasida ochiq hayriya maktablarining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Keyingi bosqichlarda Rossiya, Germaniya, AQSH, Angliya va Yevropada ijtimoiy himoya tizimining asoslari va mexanizmlari yaratildi. Uzoq yillik jahon tajribasi asosida ijtimoiy himoyani amalga oshirishning zamonaviy modellari shakllandi. Ular quyidagilardan iborat: Sotsial demokratik model — Bunda ijtimoiy himoyaning barcha masuliyatini davlat o'z zimmasiga oladi. M: Skandinaviya mamlakatlari, Yaponiya Neoliberal model — unga ko'ra ijtimoiy himoyaning aksariyat qismini tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar. Bunga AQSH yaqqol misoldir. Neokonservativ model — bunda ijtimoiy himoy davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti asosida olib boriladi. Germniyani misol qilish mumkin. Bundan tashqari hozirda ijtimoiy himoyaning ommaviy modellari ham mavjud:

Ijtimoiy himoya — bu insonning hayoti va faol mavjudligi ehtiyojlarini qondirish, hayot sharoitining minimal darajasini kafolatlashga qaratilgan tadbirlar va muassasalar tizimidir. Bugungi kunda ijtimoiy himoya insoniylik, manzillilik, komplekslilik, shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilishdan maqsad: oilalar va individlarning moddiy ehtiyojlarini ta'minlash, nafaqaxo'rlar va nogironlarni himoya qilish, oilalarni birdamligini saqlash, bolalarga sog'lom va xavfsiz voyaga yetishlari uchun zamin yaratishdan iborat. Ijtimoiy himoya tizimining tarixiy evolyutsiyasiga nazar tashlasak u dastlab diniy jamoat muassasalari, masjid, madrasa yoki cherkovlar orqali amalga oshirilgan. Uning ilk ko'rinishi milodiy 347-yilda Rim imperiyasida ochiq hayriya maktablarining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Keyingi bosqichlarda Rossiya, Germaniya, AQSH, Angliya va Yevropada ijtimoiy himoya tizimining asoslari va mexanizmlari yaratildi. Uzoq yillik jahon tajribasi asosida ijtimoiy himoyani amalga oshirishning zamonaviy modellari shakllandi. Ular quyidagilardan iborat: Sotsial demokratik model — Bunda ijtimoiy himoyaning barcha masuliyatini davlat o'z zimmasiga oladi. M: Skandinaviya mamlakatlari, Yaponiya Neoliberal model — unga ko'ra ijtimoiy himoyaning aksariyat qismini tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar. Bunga AQSH yaqqol misoldir. Neokonservativ model — bunda ijtimoiy himoy davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti asosida olib boriladi. Germniyani misol qilish mumkin. Bundan tashqari hozirda ijtimoiy himoyaning ommaviy modellari ham mavjud:

1) Welfare — bu tizim o'z navbatida 3 ta atribut: farovonlik, ta'minot va nafaqadan tashkil topgan.

2) Medical aid. Butun dunyoda ana shu modellarning u yoki bu ko'rinishiga asoslangan ijtimoiy siyosat olib boriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaning 4 ta tashkiliy-huquqiy shakli mavjud: ijtimoiy himoya, xususiy sug'urta, korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta. Ijtimoiy siyosat — bu davlat, nodavlat notijorat tashkilotlar va

nohukumat jamoat birlashmalarining aholi zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshirayotgan tadbirlarning maqsadga yo'naltirilganligidir. Ijtimoiy siyosat ijtimoiy totuvlik va ijtimoiy himoyaning yig'indisidan iborat. Ijtimoiy siyosatning o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ular orqali dunyo mamlakatlarida yuritilayotgan ijtimoiy siyosatga baho berish mumkin. Quyida ana shu belgilarni ko'rib chiqamiz[5]:

- Aholining pul daromadlari va tovar zaxiralari o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish;
- Fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash uchun qulay imkoniyatlarni yaratish;
- Ko'rsatilayotgan xizmatlar va tovarlar sifatiga bo'lgan aholi talabini qondirish;
- Aholi salomatligini mustahkamlashning moddiy bazasini kengaytirish;
- Jamiyat aholisining ma'lumot va madaniy darajasining o'sishi uchun islohotlar olib borish.

### XULOSA

Xulosa o'rnida aytish darkorki, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtiriladi, xususiylashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopol mavqeyi tugatiladi. Lekin bundan Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadiga to'liq erishildi va bu sohada qo'yilgan vazi-falar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://www.norma.uz/oz/nhh\\_loyihalari/aholining\\_ijtimoiy\\_himoya\\_qilinishining\\_milliy\\_strategiyasi\\_ishlab\\_chiqilmoqda?ysclid=lsbsate17i781449836](https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/aholining_ijtimoiy_himoya_qilinishining_milliy_strategiyasi_ishlab_chiqilmoqda?ysclid=lsbsate17i781449836)
2. T.Jo'rayev, D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot Nazariyasi. TOSHKENT - 2011
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/18/social-protection/>
4. <https://muhaz.org/1-ozbekistonda-bozor-munosabatlarining-shakllanishi-uning-yona-v2.html>
5. Абдулазизова, Н. Б. Ijtimoiy himoya tizimining zamonaviy tendensiyalari / Н. Б. Абдулазизова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

